



UDK: 379.536

Gavhar MELIKOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti assistent o'qituvchisi
E-mail: melikovagavhar@gmail.com

PhD Y.Ismatova taqrizi asosida

OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINI IFODALOVCHI BADIY OBRAZLARNING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA EKVIVALENTLIK MASALALARI

Annotsatsiya

Maqolada ota-ona va bola munosabatlari badiiy asarlarda qanday obrazlar orqali ifodalanishi hamda ularni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonidagi ekvivalentlik muammolari tahlil qilinadi. O'zbek adabiyotidagi misollar va ularning tarjima variantlari lingvokulturologik hamda semantik jihatdan solishtiriladi.

Kalit so'zlar: ota-ona, bola, munosabat, badiiy obraz, ekvivalentlik, tarjima, lingvokulturologiya.

PROBLEMS OF EQUIVALENCE IN TRANSLATING LITERARY IMAGES REFLECTING PARENT-CHILD RELATIONS INTO ENGLISH

Annotation

The article analyzes how parent-child relations are reflected through literary images and examines the problems of equivalence in their translation into English. Examples from Uzbek literature and their translation variants are compared from linguoculturological and semantic perspectives.

Keywords: parent, child, relations, literary image, equivalence, translation, linguoculturology.

ПРОБЛЕМЫ ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ЛИТЕРАТУРНЫХ ОБРАЗОВ, ОТРАЖАЮЩИХ ОТНОШЕНИЯ РОДИТЕЛЕЙ И ДЕТЕЙ, НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация

В статье анализируется, каким образом отношения родителей и детей отражаются через литературные образы, а также рассматриваются проблемы эквивалентности при их переводе на английский язык. Примеры из узбекской литературы и их варианты перевода сопоставляются в лингвокультурологическом и семантическом аспектах.

Ключевые слова: родители, дети, отношения, литературный образ, эквивалентность, перевод, лингвокультурология.

Kirish. Ota-ona va bola munosabatlari insoniyatning eng qadimiy va abadiy mavzularidan biri bo'lib, u badiiy adabiyotda hamisha alohida o'rin egallagan. Oilaviy qadriyatlar jamiyatning ma'naviy negizini tashkil etadi, shuning uchun ham ular badiiy asarlarda turli obrazlar, metaforalar va ramzlar orqali ifodalanadi. O'zbek adabiyotida ota-ona mehribonligi, bolaning itoati yoki qarama-qarshiligi, oilaviy totuvlik va ziddiyatlar obrazli tasvirlarda o'z ifodasini topgan. Bu obrazlar orqali milliy mentalitet, qadriyatlar va tarbiyaviy qarashlar aks etadi.

Globalashuv sharoitida milliy adabiyot namunalari turli tillarga tarjima qilinmoqda. Tarjima jarayonida esa ota-ona va bola munosabatlarini ifodalovchi badiiy obrazlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlarini adekvat yetkazish dolzarb masalalardan biridir. Chunki o'zbek adabiyotida oilaga oid tushunchalar ko'p hollarda milliy qadriyatlar va ijtimoiy an'analar bilan uzviy bog'langan bo'lib, ularni boshqa tilga, xususan, ingliz tiliga tarjima qilishda ekvivalentlikni ta'minlash katta mahorat talab etadi.

Quyida aql xaritasida berilgan bo'lib, unda "Ota-ona va bola munosabatlarini ifodalovchi badiiy obrazlarning ingliz tiliga

tarjimasida ekvivalentlik masalalari" mavzusi markaziy nuqta sifatida joylashtirilgan. Diagrammaning asosiy tarmoqlari mavzuning tadqiqot yo'nalishlarini ifodalaydi.


Birinchi bo'lim – badiiy obrazlar, unda ota-ona obrazi, bola obrazi va ularning o'zaro munosabat dinamikasi alohida ko'rsatilib, tarjimada aks ettirilishi uchun zarur bo'lgan manbalar sifatida belgilangan.

Ikkinchi bo'lim – tarjima jarayoni, u ekvivalentlik nazariyasi, pragmatik yondashuv va semantik tahlil kabi asosiy bosqichlarni qamrab oladi.

Uchinchi bo'lim – lingvokulturologik jihatlar, bu yerda madaniy tafovutlar, milliy qadriyatlar va obrazlarning konnotatsiyasi tarjima jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar sifatida ko'rsatiladi.

To'rtinchi bo'lim – tahlil metodlari, ya'ni qiyosiy-tarjima tahlili, lingvokulturologik metod va diskurs tahlili ilmiy yondashuv sifatida ajratilgan.

Beshinchi bo'lim – natijalar, unda ekspressiv vositalarning qiyosiyliigi, madaniy ma'no yo'qolishi va muqobil tarjima usullari kabilardir tadqiqot natijalari sifatida umumlashtirilgan.



Ekvivalentlik nazariyasi tarjima jarayonida mazmuniy to'laonlikni, uslubiy moslikni va madaniy jihatlarini saqlashga xizmat qiladi. Ota-ona va bola munosabatlarini ifodalovchi obrazlar tarjimasida nafaqat denotativ ma'no, balki konnotativ va pragmatik jihatlar ham muhim hisoblanadi. Shu sababli ushbu mavzu filologiya sohasida, xususan, adabiy tarjima va lingvokulturologiya tadqiqotlarida dolzarb ilmiy muammo sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda ota-ona va bola munosabatlarini ifodalovchi badiiy obrazlarning ingliz tiliga tarjimasida ekvivalentlik masalalarini o'rganish uchun qator lingvistik va tarjimashunoslik metodlaridan foydalanildi. Avvalo, o'zbek adabiyotidan olingan matn parchalarida ota-ona va bola obrazlari ifodalangan til birliklari tanlab olindi. Keyin ularning mavjud inglizcha tarjimalari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida bir nechta metodlardan kompleks ravishda foydalanildi. Avvalo, qiyosiy-tarjima tahlili qo'llanib, o'zbek va ingliz tilidagi matn variantlari o'zaro taqqoslandi hamda ularning semantik, uslubiy va lingvokulturologik jihatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, lingvokulturologik metod yordamida ota-ona va bola munosabatlarini ifodalovchi obrazlarning milliy madaniyatdagi o'rni va mazmuni o'rganildi. Tadqiqotda, bundan tashqari, semantik tahlil ham amalga oshirilib, matndagi leksik birliklarning denotativ va konnotativ ma'nolari tekshirildi. Pragmatik yondashuv asosida esa tarjima jarayonida muallifning maqsadi bilan o'quvchining qabul qilishi o'rtasidagi moslikka e'tibor qaratildi. Nihoyat, diskurs tahlili orqali ota-ona va bola obrazlari qo'llangan matnlardagi kommunikativ vaziyat va kontekst chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, ota-ona va bola munosabatlarini ifodalovchi badiiy obrazlarning ingliz tiliga tarjimasida bir qator ekvivalentlik muammolari kuzatiladi. Avvalo, o'zbek adabiyotiga xos oilaviy qadriyatlarini ifodalovchi obrazlar ingliz tilida to'liq semantik ekvivalent topa olmasligi natijasida ma'lum darajada mazmuniy yo'qotishlar sodir bo'ladi. Masalan, ota-onaga nisbatan hurmat, farzandning itoati yoki mehr-muhabbatni ifodalovchi ayrim iboralar ingliz tilida so'zma-so'z tarjima qilinsa, ularning lingvokulturologik konnotatsiyasi yetarlicha ifodalanmay qoladi.

Ikkinchi natija shundan iboratki, tarjimonlar ko'pincha kompensatsiya usulidan foydalanishga majbur bo'ladilar. Ya'ni, bevosita ekvivalent bo'lmagan obrazlar ingliz tilida boshqa uslubiy vositalar orqali ifodalanadi. Bu jarayonda denotativ ma'no asosan saqlanadi, biroq konnotativ ma'nolarni yetkazish qiyinchilik tug'diradi.

Uchinchidan, ota-ona va bola munosabatlarini tasvirlovchi metaforalar, maqollar va frazeologik birliklar tarjimasida ko'plab madaniy tafovutlar sezildi. Bu esa tarjimada pragmatik ekvivalentlikni ta'minlash uchun qo'shimcha izohlar, adaptatsiya yoki moslashtirish usullaridan foydalanishni talab etadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek adabiyotidagi oilaviy qadriyatlarini ifodalovchi obrazlarni ingliz tiliga adekvat tarjima qilish uchun nafaqat lingvistik, balki madaniy va psixologik jihatlarni ham hisobga olish zarur. Shuningdek, ota-ona va bola obrazlari orqali ifodalangan milliy mentalitet elementlarini tarjimada saqlab qolish ekvivalentlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biridir.

O'rganilganlik darajasi. Ota-ona va bola munosabatlarini ifodalovchi badiiy obrazlarning tarjimadagi ekvivalentlik masalalari tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida qisman o'rganilgan bo'lsa-da, mazkur mavzu hali to'liq ilmiy tadqiq etilgan emas. Uman olganda, tarjimada ekvivalentlik nazariyasi bo'yicha E. Nida [1], V. Vinay va J. Darbelne, Yu. Nazariy, A. Komissarov [2], L. Barxudarov kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning tadqiqotlarida semantik, pragmatik va funksional ekvivalentlik nazariyalari keng yoritilgan.

O'zbek tarjimashunosligida esa Sh. Raxmatullayev, N. Mahmudov, M. Qo'shjonov, G. Salomov, A. Mamajonov [3] kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida adabiy tarjima, frazeologizmlar va milliy madaniyatni ifodalovchi birliklarning tarjimadagi

xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, lingvokulturologiya sohasida A.Vejbitskaya, Y.Stepanov, V.Karasik, O'zbekistonda esa U.Tursunov, D.Qurbonov singari olimlarning ishlari muhim nazariy manba hisoblanadi.

Biroq ota-ona va bola munosabatlarini ifodalovchi badiiy obrazlarning ingliz tiliga tarjimasida ekvivalentlik masalalari, xususan, lingvokulturologik va pragmatik jihatlarining chuqur tahlili alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli mazkur mavzu filologiya fanida yangicha ilmiy izlanishlar olib borish uchun dolzarb hisoblanadi.

Muhokama. Ota-ona va bola munosabatlarini badiiy adabiyotda asrlar davomida insoniy qadriyatlarining eng muhim ifodalaridan biri sifatida aks etib kelgan. O'zbek adabiyotida bu mavzu, avvalo, mehribonlik, sabr, hurmat, mas'uliyat va tarbiya g'oyalari bilan chambarchas bog'liq holda yoritiladi. Badiiy matnlarda ota obraziga mehribon, ammo talabchan tarbiyachi; ona obraziga esa mehr-muhabbat va fidoyilik timsoli sifatida yondashiladi. Bola obrazida esa itoatkorlik, shukronalik, ba'zan esa qarama-qarshilik va mustaqillikka intilish singari xususiyatlar aks etadi. Bu obrazlar orqali milliy mentalitet, ijtimoiy qadriyatlar va tarbiyaviy qarashlar namoyon bo'ladi.

Tarjima jarayonida mazkur obrazlarni ingliz tiliga to'laonli yetkazish qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Chunki o'zbek madaniyatidagi "ota-onani ulug'lash", "farzandning itoati", "onaga sadoqat" kabi tushunchalar ingliz tilida bevosita ekvivalentga ega emas [4]. Masalan, "ona yurak – mehr daryosi" kabi metaforik ibora ingliz tilida "a mother's heart is a sea of kindness" tarzida berilishi mumkin, ammo bunda o'zbek tilidagi poetiklik va obrazlilikning milliy xususiyati qisman yo'qoladi.

Misol tariqasida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Otabekning onasiga bo'lgan mehribonligi va farzandlik burchini ado etishga intilishi o'zbek oilaviy qadriyatlarini yaqqol aks ettiradi:

"Ona, sizning duoyingiz menga har narsadan muqaddas."

Ingliz tiliga tarjimada bu jumla odatda quyidagicha beriladi:

"Mother, your blessing is holier to me than anything else."

Bu yerda semantik ekvivalentlik saqlangan bo'lsa-da, "duo" tushunchasining diniy va madaniy konnotatsiyasi ingliz tilida to'liq ifodalanmagan. O'zbek madaniyatida "ona duosi" faqatgina ma'naviy ko'mak emas, balki taqdir va hayot barakasi bilan bog'langan tushuncha. G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida bosh qahramonning onasiga bo'lgan sog'inchi va mehr-muhabbati ta'sirchan obrazlarda ifodalangan:

"Onajonimning birgina tabassumi butun dardimni unutdiradi."

Ingliz tiliga tarjima variantida quyidagicha berish mumkin: "My mother's single smile would make me forget all my pain."

Bu tarjima semantik jihatdan to'liq mos kelsa-da, o'zbekcha "onajonim" so'zining mehrga boy, diminutiv ohangi ingliz tilida neytralroq "my mother" orqali ifodalangan. Bu holda konnotativ ekvivalentlik qisman yo'qolgan.

Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romanida ota-ona va bola munosabatlarini ham falsafiy, ham ma'naviy mazmun kasb etadi.

"Ona izzatini bilmagan farzand insoniylikni bilmaydi"

Ingliz tarjimasini esa quyidagicha taqdim etamiz:

"A child who does not respect his mother will never know humanity"

Bu misolda semantik ekvivalentlik saqlangan, lekin "izzat" so'zining madaniy-axloqiy qamrovi ingliz tilida "respect" orqali faqat qisman ifodalanadi.

Endi ingliz na'munalariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Uilyam Shekspir "Hamlet" tragediyasida ham ota-ona va bola munosabatlarini muhim o'rin tutadi. Hamletning onasi Gertrud bilan bo'lgan ziddiyatli suhbatlarida farzandning g'azabi va iztiroblari yuksak dramatism bilan ifodalangan:

"Mother, you have my father much offended"

Bu jumla ingliz tilidan o'zbekchaga quyidagicha tarjima qilinadi:

“Ona, siz otamni qattiq ranjitingiz”

O'zbek tilida “ona” murojaatidagi hurmat ohangi saqlansa-da, asl matndagi g'azab va ayblov kuchi qisman yumshatilgan ko'rinadi.

Ushbu misollar shuni ko'rsatadiki, ota-ona va bola munosabatlarini ifodalovchi obrazlarni tarjima qilishda denotativ ma'no odatda saqlanadi, biroq konnotativ va lingvokulturologik qatlamlar ko'pincha yo'qoladi. Ayniqsa, “ona duosi”, “izzat”, “onajonim” kabi birliklar tarjimasida madaniy komponentni yetkazish qiyinchilik tug'diradi. Tarjimon bu holatda kompensatsiya, izohiy tarjima yoki moslashtirish usullaridan foydalanishi zarur.

Ekvivalentlik nazariyasidan kelib chiqib qaraganda, tarjimada denotativ ma'no asosan saqlanadi, biroq konnotativ va pragmatik qatlamlarni to'liq yetkazish ko'p hollarda qiyinchilik tug'diradi. Bu jarayonda tarjimon kompensatsiya va adaptatsiya usullaridan foydalanishga majbur bo'ladi. Masalan, “ota-onaning duosi bilan” iborasi ingliz tilida “with parents' blessing” tarzida berilishi mumkin. Bu o'rinda semantik ekvivalentlik ta'minlansada, lingvokulturologik konnotatsiyaning chuqurligi ingliz tilida biroz soddalashtirilgan ko'rinishda ifodalanadi.

O'zbek va ingliz adabiyotida ota-ona va bola munosabatlari tasvirida ham qator umumiylik, ham farqlilik mavjud. Ingliz adabiyotida, ayniqsa, bola obrazining mustaqillikka intilishi, individual qarashlari ko'proq yoritilsa, o'zbek adabiyotida esa oilaviy qadriyatlar va tarbiyaviy intizom ustuvor o'rin egallaydi. Shu bois, tarjimada nafaqat lingvistik ekvivalentlik, balki madaniy tafovutlarni muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ota-ona va bola munosabatlarini ifodalovchi badiiy obrazlarni ingliz tiliga tarjima qilishda ekvivalentlikning to'liq ta'minlanishi ko'p hollarda imkonsiz bo'ladi. Shu sababli, tarjimashunoslikda ekvivalentlikning darajalari (semantik, pragmatik, funksional)

asosida yondashish hamda tarjimada milliy madaniy komponentni imkon qadar saqlab qolish zarur.

Ota-ona va bola munosabatlari o'zbek va jahon adabiyotida ko'plab asarlarda yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Ularning ingliz tiliga tarjimasini jarayonida ekvivalentlikning turli darajalari kuzatiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ota-ona va bola munosabatlarini ifodalovchi badiiy obrazlarning ingliz tiliga tarjimasida ekvivalentlik masalalari muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida o'zbek tilidagi badiiy asarlarda mavjud bo'lgan ota-ona mehri, farzandga bo'lgan g'amxo'rlikni, tarbiyaviy o'g'itlarni va oilaviy qadriyatlarini ifodalovchi obrazlar ingliz tiliga o'girilganda qator muammolar kuzatilishi aniqlangan. Jumladan, semantik va stilistik tafovutlar, milliy-madaniy konnotatsiyalarni to'liq yetkazishdagi qiyinchiliklar tarjimonlardan yuqori darajadagi lingvokulturologik bilim va mahoratni talab etadi.

Shuningdek, qiyosiy-tarjima tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda so'zma-so'z tarjima milliy ruhni to'liq ifodalay olmaydi. Bunday vaziyatlarda pragmatik yondashuv muhim bo'lib, muallifning maqsadini o'quvchiga aniq yetkazish uchun ekvivalentlikni shartli yoki funksional darajada ta'minlash zarur. Diskurs tahlili esa ota-ona va bola obrazlari faqat leksik birlik sifatida emas, balki ijtimoiy-kontekstual vaziyatlarda o'z aksini topishini ko'rsatib berdi.

Natijada, tadqiqot ingliz tiliga o'zbek badiiy asarlarini tarjima qilishda ota-ona va bola munosabatlari bilan bog'liq obrazlarni ekvivalent tarzda yetkazishning nazariy asoslarini ishlab chiqishga hissa qo'shdi. Shu bilan birga, tarjima amaliyotida bunday obrazlarning to'laqonli va milliy ruhga mos talqinini yaratish uchun lingvokulturologik yondashuvning ahamiyati ta'kidlandi. Mazkur tadqiqot kelgusida tarjimashunoslik va lingvokulturologiya kesishmasida yangi izlanishlarga turtki bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – 350 b.
2. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 1992. – 327 p.
3. Chingiz Aytmatov. Asrga tatigulik kun. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981. – 416 b.
4. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 489 p.
5. G'afur G'ulom. Shum bola. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1972. – 210 b.
6. Halliday M.A.K. An Introduction to Functional Grammar. – London: Edward Arnold, 1994. – 430 p.
7. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
8. Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: Brill, 1982. – 218 p.
9. William Shakespeare. Hamlet, Prince of Denmark. – First Folio (F1), 1623. – 144 p.
10. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – Москва: Высшая школа, 1990. – 253 б.
11. Мамажонов З. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 210 б.
12. Сапир Э. Язык и культура. – Москва: Прогресс, 1993. – 340 б.
13. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 456 б.